

**AJRALISH JARAYONINING YOSH OILALAR
PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI***Temirova Muxarram Fayzullayevna**Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani 58-maktab psixologi***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada yosh oilalarda ajralish jarayonining psixologik va ijtimoiy ta'siri, uning shaxs ruhiyatiga yetkazadigan oqibatlari hamda bunday holatlarda psixologik yordamning ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: ajralish, yosh oila, psixologik stress, emotsional holat, oilaviy munosabat, ruhiy tushkunlik, moslashuv, ijtimoiy muhit.

KIRISH

Ajralish jarayoni yosh oilalar hayotida eng og'ir psixologik inqirozlardan biri hisoblanadi. Bu holat nafaqat er-xotin munosabatlariga, balki ularning ruhiy holati va ijtimoiy hayotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik jihatdan ajralish ko'pincha kuchli stress, emotsional og'riq va ichki tushkunlik bilan kechadi. Yosh oilalarda hayotiy tajribaning yetarli emasligi sababli bu jarayon yanada og'ir kechishi mumkin.

Ajralishdan so'ng shaxsda o'ziga ishonchsizlik, yolg'izlik hissi va kelajakka nisbatan xavotir paydo bo'lishi kuzatiladi. Ayrim hollarda depressiv holatlar ham rivojlanishi mumkin. Yosh oilalarda ajralishning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: oilaviy nizolar, moddiy muammolar, o'zaro tushunmovchilik, muloqot yetishmasligi va tashqi ijtimoiy bosimlar shular jumlasidandir.

Ajralish jarayoni farzandlar bo'lgan holatda yanada murakkablashadi. Bolalar ota-ona ajralishini og'ir qabul qilib, emotsional beqarorlik, qo'rquv va stress holatlarini boshdan kechiradilar. Psixologik jihatdan bunday vaziyatlarda shaxsning moslashuv qobiliyati katta ahamiyatga ega. Yaxshi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi ajralish oqibatlarini yengillashtiradi.

Maktab psixologi va oilaviy psixologlar ajralishdan keyingi psixologik tiklanish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Individual maslahatlar va psixoterapevtik suhbatlar shaxsning emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, ijtimoiy faoliyatga qaytish, ish bilan bandlik va yangi maqsadlar qo'yish ajralishdan keyingi ruhiy tiklanishni tezlashtiradi.

Respublikamizning ma'naviy hayoti va uning o'ziga xos tomonlari muttasil rivojlanayotgan davrda jamiyatning bir bo'g'ini bo'lgan oila hamda oila muamolariga alohida e'tobor berilmoqda.

Ajralish muammosi hozirgi zamon insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun davlatimiz ajralish muammosini o'rganishga keng ilmiy jamoatchilik e'tiborini jalb qilib kelmoqda. Bu muammoni turli soha mutaxassisleri: yuristlar, demograflar, iqtisodchilar, sosiologlar, psixologlar va boshqa sohalar mutaxassisleri o'rganadilar. Ularning e'tibori bu hodisa sabablari, omillari, motivlarini o'rganish, ularni bartaraf etish, ajralishlarning salbiy asoratlarini kamaytirish masalalariga qaratilgan. Ayrimlar agar oilada farzandlar bo'lmasa bu fojeadan qutulish, o'zaro tushunish, o'zaro hurmat, bir - birlariga nisbatan emosional yaqinlik, mehr - oqibat bo'lmasa, oila o'z funksiyasini bajarmayotgan bo'lsa, bunday juftlar ajralib ketgani ma'qul deb hisoblaydilar.

Har bir yosh oilada muayyan qiyinchiliklarni yuzaga kelishi quyidagi muamolarga bog'liq tarzda namayon bo'ladi:

- Oilaviy hayotni bir maromda kechishini taminlash, ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni hal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;
- Vaqtни yaxshi o'tkazish, ko'ngilhushliklarnig cheklanganligi;
- Yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan to'liqishi, asablarning charchashi;
- Iqtisodiy qiyinchiliklar;

Oxirgi holat bir tomondan ayni paytda yoshlardagi orzu-havasning ko'payib ketishi bilan izohlansa, boshqa tomondan ota-onalarning orzu-havaslarini-yu, bordikeldilar bilan bog'liq sarf xarajatlarning ortib borishi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'tkazilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, kelin va kuyovdan ajralish sababini so'ralganda, "xarakterlarimiz mos tushmadi", "moddiy qiyinchiliklar", "ota-onalarining hayotiga noo'rin aralashuvi" kabilarni keltirib o'tishmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oiladagi ma'naviy-ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar bir-birlarini qanchalik yaxshi tushunsalar, bu "sabablar" (bahonalar) oilaning inqiroziga asosiy sabab bo'la olmaydi.

O'zbek oilalarida turmush o'rtog'iga nisbatan qo'pol muomalada bo'lish, ota-onasi va boshqa qarindosh-urug'larning aralashuvi, turmush o'rtoqlaridan birining oilaning umumiy masalasiga befarq qarashi kabilar ko'proq sabab bo'lsa, Evropa xalqlari oilalari uchun esa ajralish sabablari sifatida aksariyat hollarda, ichkilikbozlikka berilish, er-xotin xiyonati, harakterlarning mos kelmasligi qayd etiladi. Ajrashgan ayol erkakka nisbatan jamoatchilik tomonidan ko'proq tanqidiy muhokama qilinadi. Ajrashgandan so'ng ayollarning ahvoli erkaklarnikiga nisbatan yomonlashadi, negaki o'zbek millatidagi o'ziga xos urf-odatlar, o'zbek ayolining uy-joylarini eriga qoldirib, o'z ota - onasinikiga borib yashashga majbur bo'ladilar. Ayollarda ajrashgandan so'ng qayta oila qurish imkoniyati nihoyatda kamdir. Ajrashgan erkaklar ayollariga nisbatan bir muncha imtiyozli vaziyatda bo'ladilar: ular ajralishgandan so'ng o'z yaqinlari tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanadi. Bolasi

yo'q bo'lgan holda ajrashgan erkak uchun turmushga chiqmagan ayolga uylanish sezilarli darajada muammo tug'dirmaydi. Bunlan tashqari u ajralishgandan so'ng oldingi sharoitda ya'ni o'z uyida qoladi va navbatdagi yangi oila qurish imkoniga ega bo'ladi. SHuning uchun ajralishlarning tashabbuskori ko'proq erkaklar bo'ladilar. Ajralish quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

* jamiyat uchun - noto'liq oilalar soni ko'payadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo'ladi, fohishabozlik ortadi, teri-tanosil kasalliklarni ortishi kuzatiladi, shaxsning ijtimoiy faoliyati susayadi;

* erkaklar uchun - yolg'izlik hissini ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, turli kasalliklar;

* ayollar uchun - yolg'izlikni his qilishning ortishi, qayta oila qurish imkoniyatining cheklanganligi, asabiylik, stress, turli hastaliklar, o'z joniga qasd qilish.

Ajralish muammosi ham jamiyatga katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jamiyatda noto'liq oilalar soni ko'payishiga, oilalararo yoki qarindoshlararo adovatinig yuzaga kelishiga bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo'lishiga fohishabozlik natijasida teri-tanosil kasalliklari ortishiga sabab bo'lmoqda. Buning natijasida shaxsning ijtimoiy faoliyati susayishi kuzatilmoqda.

Oila qurish shunchaki bekinmashoq o'yin emas, balki bir umr birgalikdagi ezgulik sari intilishdir. Shunday ekan; avvalo men turmush qurishga tayyormanmi? Men farzandga ota-ona hamda men bilan bir yostiqqa bosh qo'yadigan kishiga doimiy umr yo'ldoshi bo'la olamanmi? degan savollarga javob berishi kerak. Yoshlarni turmush qurishga tayyorlashda ajralishdek mudhish voqea oila muhiti uchun fojia ekanligini ularning ongiga singdirish, hamda oiladagi turli xil majorolardan yaqqol misollar yordamida tushuntirish bu soxadagi soxta tor ma'nodagi fikrlarni bartaraf qilishda muhim ro'l o'ynaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, yoshlarni oilaga tayyorlashda quyidagilarni inobatga olishlarini taklif etamiz.

1. Yoshlarni oila to'g'risidagi tasavvurlarini uyg'otishda maktab, kollej hamda oliy o'quv yurtlarida turmush qurish muammolariga bag'ishlangan munozara va muhakamalar o'tkazish lozim.

2.Ommaviy axborot vositalarida oilaga bag'ishlangan baxs munozaralari ko'rsatuvlarni ko'proq ko'rib borishi kerak.

3.Ota-onalar yoshlarni turmushga tayyorlashga bag'ishlangan seminar materiallari bilan tanishtirib borishi kerak.

4. Ta'lim muassasalaridagi ma'naviy marifiy ishlar samarasini yanada oshirish lozim.

XULOSA

Ajralish jarayoni yosh oilalar psixologiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Bunday vaziyatlarda psixologik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va to'g'ri moslashuv muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" T. Ma'naviyat 2009
2. Erkin Yusupov, O'tkir Yusupov "Oila ma'naviyat bo'lagi" T - 2003
3. Munavvarov "Oila pedagogikasi" T-1992
4. M.Asranboyeva, M.Badritdinova "Oila psixologiyasi" T-2022
5. X. Uzoqov. E. G'oziyev, A. Tojiyev – "Oila etikasi va psixologiyasi" T. O'qituvchi 1992
6. Ziyo.net